5. Web sahifaga o’tish. Gipertekstli bog’lanishlar



Web sahifaga o’tish. Gipertekstli bog’lanishlar

Reja:

1. Boshlangichlar

2. Bog’lanishlarni o’rnatish.

3. Grafik bog’lanishlar

< A> tegi parametrlari:

href – boshlangich va oxirgi teglar orasidagi tekst yoki rasmlarni gipertekstli bog’lanish deb aniklaydi.

Mumkin bo’lgan qiymatlari :

http://... - www-dokumentga bog’lanish qiladi;

ftp://... - ftp-sayt yoki unda joylashgan faylga bog’lanish qiladi;

mailto:... – qabul qiluvchining adresi ko’rsatilgan elektron pochtani ishga tushiradi;

name – teglarning boshi va oxirida joylashgan xujjatni bog’lanish ob`ekti deb belgilaydi

< !—NAME parametrini ishlatish: -->
< A NAME="history">Informatikadan ma`ruzalar</ A>
……

……
Boshlang’ich holatga qaytish

< A HREF="#history">ma`ruzalar

Bog’lanishlarni o’rnatish.

Web xujjatlarning asosiy ajralib turadigan qismi, bu xujjatlarga qo’yiladigan giper bog’lanishlardir. Giperbog’lanishlar «jonli» ravishda namoyon bo’ladi. Ya`ni oddiy matnlarga qo’yilgan, masalan, «qo’shimcha ma`lumotlarni ikkinchi varaqdan olasiz» kabi izoxda siz uni ikkinchi varaqqa o’tsangiz, olasiz. Gipermatnlarda esa o’sha bog’lanishlarning o’zi xarakatlanadi. Boshqa xujjatlarga yo’l ko’rsatuvchi va olib boruvchi giperbog’lanishlar xam gipermatnli aloqalarning asosiy qismi xisoblanadi. Giper aloqalar faqat kalitli so’zlar orqaligina bo’lmay, balki turli ob`ektlar, xatto rasmlarning bo’laklarlari orqali xam amalga oshirilishi mumkin.

Brauzerlar boshqa bir xujjatga yoki xujjatning ma`lum bir qismiga murojaat qilish uchun ajratilgan kalit so’zni o’zgacha rangda yoki ostiga chizilgan shaklda xosil qilishi xaqida yuqorida aytib o’tgan edik. Bu ishorat ko’rsatkich ustida sichqoncha tugmasini bir marta bosish bilan boshqa xujjatga tez o’tish mumkin. Manzilli-bog’lanishning ko’rinmas qismida boshqa xujjatga o’tishga yo’l ko’rsatiladi. HTML tilida bog’lanish o’rnatish quyidagicha bo’ladi:

< A HREF=”Main.htm”> Main.htm ga bog’lanish < /A>

bu erda «Main.htm ga bog’lanish» kalit so’zi joriy xujjat joylashgan katalogdagi Main.htm nomli xujjatga bog’lanishni ifodalaydi. agar boshqa bir katalogda joylashgan xujjatga bog’lanish qo’yish kerak bo’lsa, u xolda o’sha katalokka yo’lni to’liq ko’rsatish kerak. Masalan, joriy katalogda joylashgan img katalogidagi 6.html ga bog’lanish qo’yish quyidagicha bo’ladi:

< A HREF=”img/6.html”>6 dastur< /A>

yuqorida ko’rilgan bog’lanishlar faqatgina bir kompyutergagina tegishli bo’lib, bog’lanishlarni tarmoq bo’yicha xam qo’yish mumkin:

< A HREF=”http//www.mail.ru/index.html” >

elektron pochta bosh saxifasiga bog’lanish< /A>

Tarmoqda joylashgan xujjatga bog’lanish qo’yilganda, o’sha xujjat ko’rsatilgan joyda bo’lishi kerak. Barcha ichki bog’lanishlarga xujjatlarni boshqa katalokka ko’chirilganda xar doim tuzatish kiritilishidan qochish kerak.

Giperbog’lanishlarni faqat tasvir yoki xujjatlargagina emas, balki ixtiyoriy faylga berish mumkin.

Giperbog’lanishlarni nafaqat boshqa faylga berish mumkin, balki, joriy xujjatning biror qismiga xam berish mumkin.

Xujjatning aniqlangan qismiga bog’lanish qo’yish HTML tilida quyidagicha amalga oshiriladi. Masalan main.html xujjatida zakladka qo’yish:

< A name=”A001”>1-bob*< /A>

Shunday qilib, 1-bob so’zi A001 zakladkani ifodalaydi. Boshqa xujjatdan turib main.html dagi A001 zakladkasiga bog’lanish qo’yish quyidagicha amalga oshiriladi:

< A HREF=”main.html #A001”>1-bob< /A>

belgisini qo’yish majburiydir.

Matnlarga giperbog’lanish qo’yishdan tashqari grafik tasvirlarga xam giperbog’lanishlar qo’yish mumkin. Xar qanday rasm gipermatnli bog’lanish bo’lishi mumkin. Bunda belgilangan matn o’rnida belgilangan rasm bo’ladi xolos. Bog’lanish qo’yishning qolgan qismlari matnli bilan aynan bir xil.

Grafik bog’lanishlar


HTML tilidagi kurinishi kuyidagicha bo’ladi:

< A HREF=#start>= nosirov.jpg>< /A>

rasmli bog’lanish atrofida xosil bo’lib qolgan chiziqni avtomatik olib tashlash uchun img tegida **border=”0”** parametrini qo’llash kerak.

Grafik bog’lanishli tasvirga boshqa parametrlarni xam qo’shish mumkin:

< A HREF=9.html> 1-mavzu < img src= img/2.jpg width=200 height=133 h space=12 vspace=4 align=left alt=”Bosh menyuga bog’lanish” border=2>< /A>



TARGET – tipertekstli bog’lanish ko’rsatiladigan joyni aniqlaydi. Bu parametr faqat HREF bilan birga ishlatiladi. Qiymat sifatida quyidagi nomlardan birini berish kerak

-self – ma`lum xujjat ushbu freymda ko’rinishi kerakligi aniqlaydi;
_parent – xujjat ushbu freymda ko’rinishi kerakligini aniqlaydi. Boshqacha aytganda _parent FRAMESET joylashgan oynaga jo’natadi, berilgan freym bilan birga;
_top – xujjat barcha yuqoridagi freymlarda ko’rinishini ta`minlaydi;
_blank – xujjatni yangi oynada ko’rinishini ta`minlaydi.

< A HREF="ftp://ftp.cdrom.com" TARGET="_blank">FTP-site< /A>

< A HREF="http:// mail.ru "> Elektron pochta < /A>

< A HREF="mailto: nosirov@mail.ru?subject= Salom">Aloka < /A>.

Image not found or type unknown

